




O'zbekiston Respublikasi  
Ta'limdi rivojlantirish respublika  
ilmiy-metodik markazi

## Kreativ ustoz – ilhomlangan o'quvchi


Boltayeva Lola Abduvohidovna  
Toshkent shahar Yunusobod tumani  
273-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
geografiya fani o'qituvchisi



*“Men hech narsani o’rgatmayman, faqat o’quvchilarni o’zlarining bilimlarini kashf qilishga undayman.”*

## SUQROT

Suqrotning bu so’zlari ustozning kreativ yondashuvini aks ettiradi: o’quvchini ma’lum bir natijaga erishish uchun o’rgatish emas, balki ularga o’z bilimlarini kashf qilishda yordam berish zarur.



01 Kreativlik nima?

02 Kreativ ustoz kim?

03 Kreativ ustoz bo‘lishning  
afzalliklari

04 Kreativ topshiriqlar

05 Yozgi ta’til uchun topshiriqlar

# KREATIVLIK NIMA?



“Kreativ” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, yaratuvchi, ijodkor degan ma’noni anglatadi.



Kreativlik yangi g‘oyalalar yaratish va muammolarni innovatsion hal qilish qobiliyatidir.




Kreativlik bu noodatiy fikr yuritish, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishdir.

Kreativlik yangilikni ixtiro qilish, an'anaviylikdan voz kechishni bildiradi.



# KREATIV USTOZ KIM?

Kreativ ustoz shogirdlarining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan o'qituvchidir.



U o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan, o'rganish jarayonini oson va qiziqarli qilish uchun turli usullarni, o'yinlar, rolli o'yinlar va muammoli vazifalarni qo'llaydi.

# KREATIV USTOZ KIM?



1  
2  
3  
4



Kreativ ustoz - ta'limda yangiliklarni, innovatsion g'oyalarni joriy qilishga ega bo'lgan pedagog

Kreativ ustoz o'quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki ilhom va yangi g'oyalar bilan ham boyituvchi shaxs

Kreativ ustoz shogirdlarining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi o'qituvchidir

Kreativ ustoz innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan o'qituvchidir

## **KREATIV USTOZ BO'LISHNING AFZALLIKLARI:**

- Kreativ ustoz o'quvchiga tayyor javob bermaydi, uni izlanishga undaydi.
- Kreativ ustoz shogirdlarining ichki dunyosini tushunadi va ularning ehtiyojlarini sezadi.
- Kreativ ustoz yangi pedagogik usullarni qo'llaydi, texnologiyalarni integratsiyalash va interaktiv ta'limg shakllarini yaratish orqali darslarni qiziqarli va samarali tashkil qiladi.
- U o'quvchilar bilan yaxshi aloqalar o'rnatadi, har birining individual imkoniyatlarini inobatga olib, ta'limg jarayonini rejorashtiradi.
- Kreativ ustoz darsni qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil qiladi.
- U o'quvchilarga eng yangi bilimlarni taqdim etish va ularga o'z dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatini beradi.

# DARSLARNI KREATIV TASHKIL ETISH USULLARI



**1**

**Har bir darsda noodatiy metodlardan foydalanish**

**2**

**Darsda muammoli vaziyatlar hosil qilish orqali yangi g'oyalarni o'ylab topish**

**3**

**Harakatli yoki turli o'yinlarni darslarda samarali qo'llash**

**4**

**Dars mobaynida barcha o'quvchilarni qamrab olib, faollikka erishish**

# Amaliyot – bilimni mustahkamlash asosi



# Darslarni amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish o'quvchilarni faollikka chaqiradi



**Darslarda kreativlikni qo'llash — o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish, tafakkurini rivojlantirish va amaliy bilimlar berishda samara beradi**

## **Kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar:**

- Interaktiv xaritalar bilan ishlash
- “Tadqiqotchi” o'yini
- Rolli o'yinlar
- Hikoya yaratish
- Viktorinalar
- G'oya xaritasi usuli



- “Ekologik empatiya” o'yini
- “Resurs ovchilari” o'yini
- Infografika va plakat tayyorlash
- “Virtual sayohat” loyihasi
- Loyiha asosida o'qitish
- Muammoli vaziyat

## 7-sinf. Geografiya. “Yevrosiyo materigi tabiat zonalari” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:

### “Tabiat zonalari bo‘ylab sayohat” nomli rolli o‘yin

#### Metod mohiyati

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, Yevrosiyo materigidagi har bir tabiat zonasasi vakiliga aylanadilar. (M-n, tundra, tayga, dasht, cho‘l).

#### Topshiriq


“Sayohatchilar” ularning hududiga “mehmon” bo‘lib savollar beradilar.

#### Maqsad

Har bir tabiat zonasining xususiyatlarini og‘zaki va amaliy tarzda o‘zlashtirish.

#### Natija

Har bir tabiat haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.



## 7-sinf. Geografiya. “Yevroсиyo materigi tabiat zonalari” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:



### “Ekspeditsiya kundaligi” nomli yozma kreativ topshiriq



#### Metod mohiyati

O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatadi, nutqini rivojlantiradi.



#### Maqsad

Tabiat zonalarining o‘ziga xosligini mustahkamlash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish



#### Topshiriq

O‘quvchi o‘zini olim-sayohatchi sifatida tasavvur qiladi va biror zonaga qilgan “ilmiy ekspeditsiyasi” haqida kundalik yozadi.



#### Natija

Tabiat zonalari haqida ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatish



## 7-sinf. Geografiya. “Yevrosiyo materigi tabiat zonalari” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:

### Mini-loyiha: “Tabiat zonalarini saqlaylik”

A

#### Metod mohiyati

O‘quvchilarni erkin fiklashga  
o‘rgatish orqali ekologik  
muammolarni hal qilish

B

#### Maqsad

O‘quvchilarni nutqini rivojlantirish,  
muammolarni yechishga o‘rgatish

C

#### Topshiriq

O‘quvchilar guruh bo‘lib, biror tabiat  
zonasi haqida ekologik muammoni  
tanlaydilar va uni hal qilish bo‘yicha  
takliflar ishlab chiqadilar.

D

#### Natija

“Qaysi zonada yashashni tanlardingiz?”  
O‘quvchilar o‘zlari yashashni istagan  
zonani tanlab, nega aynan shu zonani  
tanlaganligini asoslab beradilar.



## 10-sinf. Geografiya. “Amerika Qo’shma Shtatlari” mavzusini o’qitishda kreativ yondashuv:

### “Virtual sayohat” usuli

#### Metod mohiyati

Google Earth yoki interaktiv xaritalardan foydalangan holda o’quvchilar AQSHning mashhur hududlarini aylanib chiqishadi.

#### Topshiriq

Har bir guruh bir shtat yoki hududni tanlaydi va u haqda sayyoqlar uchun qisqa video/prezentatsiya tayyorlaydi.


#### Maqsad

Tanlangan shtatning xususiyatlarini og’zaki va amaliy tarzda o’zlashtirish.

#### Natija

Shtatlarning o’ziga xos xususiyatlarini ajrata oladi.

## 7-sinf. Geografiya. “Amerika Qo‘shma Shtatlari” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:



### “Shtatlar tanlovi” – Rolli o‘yin



#### Metod mohiyati

Har bir guruh o‘zini biror AQSH shtati sifatida tanishtiradi va boshqalardan “investitsiya jalb qilish” uchun raqobatlashadi.



#### Maqsad

Iqtisodiy-geografik farqlarni o‘rganish va mustahkamlash.



#### Topshiriq

O‘quvchi o‘zini olim-sayohatchi sifatida tasavvur qiladi va biror shtatga qilgan “ilmiy ekspeditsiyasi” haqida kundalik yozadi.



#### Natija

Shtatlar haqida ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatish.

## 7-sinf. Geografiya. “Amerika Qo‘shma Shtatlari” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:

### “Xaritada yashash” nomli tahliliy topshiriq

**A**

#### Metod mohiyati

O‘quvchilarni erkin fikrلashga  
o‘rgatish orqali muammolarni  
hal qilish

**B**

#### Maqsad

O‘quvchilarni nutqini rivojlantirish,  
muammolarni yechishga o‘rgatish

**C**

#### Topshiriq

O‘quvchilar guruh bo‘lib, biror shtat  
haqida ma’lumot beradilar.



**D**

#### Natija

“Qaysi shtatda yashashni tanlardingiz?”  
O‘quvchilar o‘zlari yashashni istagan shtatni tanlab,  
nega aynan shu joyni tanlaganligini asoslaydilar.



# TABIYIY FANLAR – AMALIYOT VA TAJRIBALARGA ASOSLANGAN

## AMALIY MASHG'ULOT



**01**

Fanni chuqur o'rghanishga yordam beradi.

**02**

Muammoni hal qilish orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

**03**


O'quvchining ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi.

**04**

Nazariy olingan bilimni real hayotda qo'llashga o'rgatadi.

## 5-sinf. Tabiiy fanlar. “Atrof-muhitning ifloslanishi” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv:

### “Ekologik empatiya” — Tabiat bilan hissiy bog‘lanish



# Yozgi ta'tilda o'quvchilar bo'sh vaqtlarida bajarishlari uchun qiziqarli topshiriqlar



# TOPSHIRIQLAR

## 6-sinf. Tabiiy fan. 10-bob. Tog' jinslari.



Tog' jinslaridan namunalar to'plang. Ularni raqamlang.

Tog' jinslarining o'xshash va farqli jihatlarini kuzatib, ularni guruhlarga ajrating.

Quyidagi savollarga javob yozing:

1. Tog' jinslari qanday rangda?
2. Unda qatlamlar bormi?
3. Unga kristallar birikkanmi?
4. Tog' jinsi g'adir-budurmi yoki silliq?
5. Unda g'ovaklar bormi?
6. Tog' jinsi bo'linadimi?

# TOPSHIRIQLAR

Olingen ma'lumotlar asosida jinslarni magmatik, cho'kindi yoki metamorfik turlarga ajrating. Tog' jinslarning rangini, tuzilishini, qatlamlanishini va boshqa xususiyatlarini tekshirib chiqing.



# Yozgi ta'tilda o'quvchilar bo'sh vaqtlarida bajarishlari mumkin bo'lgan topshiriqlar:

## Chiqindilardan ekologik bog' yaratish

Bu loyiha tabiatni asrash va chiqindilarni qayta ishlashni o'rgatishning ijodiy hamda samarali usulidir.

A

### Maqsad

Plastik idishlar, kartonlar va boshqa chiqindilarni qayta ishlash orqali yashil bog' yaratish.

B

### Kerakli materiallar

Plastik idishlar. Tuproq. O'simliklar yoki urug'lar. Bo'yoqlar, markerlar. Qayta ishlangan materiallar

D

### Natija

Bu loyiha orqali o'quvchilar chiqindilarni qayta ishlashni o'rganadilar. O'z qo'llari bilan yashil bog' yaratishning zavqini his qiladilar.

C

### Jarayon

1. Idishlarni tayyorlash: Plastik idishlarni tozalang va ularni kerakli shaklga keltiring.
2. Tuproqni joylashtirish: Idishlarni tuproq bilan to'ldiring.
3. O'simliklarni ekish: Tuproqqa o'simlik urug'larini yoki kichik o'simliklarni eking.
4. Dekoratsiya qilish: Idishlarni bo'yoqlar yoki markerlar bilan bezang.
5. Bog'ni joylashtirish: Yaratilgan bog'ni quyoshli joyga qo'ying va muntazam sug'oring.

Yaxshi o'qituvchi – so'zlab beradi.

Eng yaxshi o'qituvchi – tushuntiradi.

Zo'r o'qituvchi – ko'rsatadi.

Kreativ o'qituvchi – ilhomlantiradi.



E'tiboringiz  
uchun  
rahmat!

